UO‘K 94 (575.1)

“O‘N SAKKIZLAR GURUHI” TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM MASALALARI

O‘.Q. Ubaydullayev

Maqolada “o‘n sakkizlar guruhi” tarixshunosligi o‘rganilgan. Respublikada ishlash uchun toqat qilib bo‘lmaydigan sharoit yuzaga kelganligi sababli milliy rahbar va xodimlarning O‘zbekistondan ishdan bo‘shatish va RKP(b) MK ixtiyoriga jo‘natishni so‘rab ariza yozishlari va oqibatda ularning guruhbozlikda ayblanib qatag‘on qilinishi adabiyotlarda “o‘n sakkizlar guruhi”, “18lar chiqishi”, “o‘n sakkizlar ishi” degan nom ostida tadqiq etilgan. Mazkur hodisaning adabiyotlarda yoritilishi masalasi tarixiy manbalar, arxiv materiallari asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *“o‘n sakkizlar guruhi”, “18 lar chiqishi”, “o‘n sakkizlar ishi”, muxolifat, guruhbozlik, qatag‘on, “aksilinqilobiy harakatlar”, tergov, surgun, konslager, reabilitatsiya.*

В статье исследуется историография «Группы восемнадцати». Показано, что вследствие тяжёлых условий работы в республике национальные руководители и служащие обращались с заявлениями об увольнении из Узбекистана и переводе в Центральный комитет РКП(б), что впоследствии стало основанием для обвинений в групповщине и политических репрессий. На основе исторических источников и архивных материалов раскрываются особенности освещения данного события в научной литературе.

Ключевые слова: *«группа восемнадцати», «выступлении 18-их», «Дело восемнадцати», оппозиция, групповщина, репрессии, «контрреволюционные движения», расследование, ссылка, концлагерь, реабилитация.*

KIRISH

Tarixga oid adabiyotlarda ko‘p uchraydigan “O‘n sakkizlar guruhi”, “18lar chiqishi”, “o‘n sakkizlar ishi” kabi atamalar, aslida, kommunistik partiya olib borayotgan siyosatga qarshi muxolif kuch sifatida chiqqan milliy rahbar va xodimlar va ularning faoliyatini anglatadi. Ariza berganlar guruhbozlikda ayblanib, qatag‘on domiga tortilgan, ularning taqdiri esa uzoq vaqt noma’lumligicha qolgan. Ushbu mavzu tarixshunosligi hanuzgacha keng tahlil etilmagani bois mazkur maqolada “O‘n sakkizlar guruhi” a’zolari va guruh tarafdorlarining taqdiri birlamchi arxiv hujjatlari asosida yoritilgan.

MATERIAL VA USULLAR

“O‘n sakkizlar guruhi” tarixshunosligining ayrim masalalarini yoritishda mavzu bo‘yicha e’lon qilingan ishlar tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi (O‘zR PAA) 58-fond, 1-ro‘yxat, 58-, 61-, 63-, 64-ishlar, O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati arxivi, P-23503 ish, P-24627 ishlardagi hujjatlar, “O‘n sakkizlar ishi / Дело восемнадцати (arxiv hujjatlarining izohli to‘plami)”dan tadqiqot materiali sifatida foydalanildi.

Qo‘yilgan muammoni tadqiq etishda tarixiylik prinsipiga tayangan holda qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullari qo‘llanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Ariza qisqa va sodda qilib yozilgan bo‘lsa-da, unda respublikada yuzaga kelgan vaziyat yaqqol sezilib turadi:

“O‘z KP(b) MK Plenumiga

ARIZA

Do‘stona va samarali ishlash uchun toqat qilib bo‘lmaydigan sharoitning yuzaga kelganligi munosabati bilan bizni O‘zbekistondagi ishdan bo‘shatishni va RKP(b) MK ixtiyoriga jo‘natishingizni so‘raymiz. To‘liqroq asosni, agarda lozim bo‘lsa, yozib berishimiz mumkin...” [1].

Ariza O‘zbekiston Kompartiyasi 2-qurultoyi Prezidiumida muhokama qilindi**,** “18lar chiqishi” butun partiya saflarining buzilishiga qaratilgan harakat deb baholandi va 5 banddan iborat plenum qarori qabul qilindi.

Aslini olganda, “18lar” guruhi a’zolariga zo‘rmazo‘raki yopishtirilgan mafkuraviy xatoliklar (aslida ular bor haqiqatni ro‘y-rost bayon qilgandilar), siyosiy yorliqlar shu hujjatdan boshlandi. 1925-yil 22–29-noyabrda Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona, Andijon, Zarafshon, Toshkent va boshqa hududlardan Samarqandga yig‘ilgan delegatlar yuqoridagilar tazyiqi bilan “18lar” arizasini qoraladi, ularga nisbatan qat’iy “choralar ko‘rish”ni talab qildilar [2]. Shundan so‘ng O‘zkompartiya Markaziy Komiteti tashkiliy-taqsimot bo‘limi mudiri, 1925- yildan vaqtincha MKning mas’ul bosh kotibi vazifasida ishlagan Magonning “Pravda Vostoka”, “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida “18lar chiqishi to‘g‘risida”gi murojaati e’lon qilindi [3]. Unda:

- “18”larning ko‘tarilishi kabi tebranish, o‘zining mazmuni jihatidan leninizmga dushmanlik bo‘lgani kabi, uning natijasi firqamiz uchun *qo‘rqinchlidir*” [4];

- “18”larning chiqishi firqaning har bir a’zo va kandidati tomonidan yaxshi o‘ylanishi kerak hamda butun firqa yacheykalarida va firqa umumiy yig‘inlarida tekshirilishi lozim”;

- ayri yoxud yalpi (jamoaviy) norozilik chiqishlari bilan firqani zaiflantirishni tugatish zarur;

- boylarning dehqonlar ommasiga bo‘lgan ta’siri kuchli, hatto milliy burjuaziyaning dehqonlarning partiyaga bo‘lgan ishonchini buzishga umidi hali bordur, firqaning holiga bularning ta’siri bo‘lmasdan qolmaydur” degan xulosa bilan “18lar chiqishi”ga qarshi keskin kurashga barchani chorlagan.

Shundan so‘ng respublika bo‘ylab “18lar chiqishi” qoralanib, partiyaning eng quyi bo‘g‘inlarida ham muhokamalar o‘tkazildi, matbuotda “18lar guruhi”ni badnom etuvchi maqolalar chop etildi.

Sovet davridagi tarixga va siyosatga oid adabiyotlarda “O‘n sakkizlar ishi” asosan qoralangan, milliy rahbar va xodimlar guruhbozlikda ayblangan [5, 6, 7]. Faqatgina qayta qurish davrida e’lon qilingan J.Zaychenkoning “Bir ariza tarixidan” nomli maqolasida [8] Vatan tarixshunosligida ilk marta “o‘n sakkizlar guruhi”ning faoliyatiga xolisona yondashilgan va atroflicha ma’lumot berilgan.

Mustaqillik yillari tarixshunosligida “18lar guruhi” faoliyatiga doir dastlabki ma’lumotlar birinchilardan bo‘lib taniqli olim R.T.Shamsutdinovning 1998-yilda nashr etilgan “Vatan tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasida yoritildi [9]. Shuningdek, hammualliflikda tayyorlangan “Qatag‘on qurbonlari xotira kitobi. Andijon viloyati (1865–1991-yillar)”ning 1-qismida ham “18lar guruhi” a’zolaridan Rahimboboyev Rahimjon faoliyatiga oid qisqacha ma’lumot berilgan, Yoqubjon Isaqulov esa mazkur guruhga mansub shaxs sifatida qayd etilgan [10].

Tarix fanlari doktori Q.Rajabov 2001-yilda “Turkiston” gazetasida e’lon qilgan maqolasida hamda ilmiy anjumandagi tezislarida “o‘n sakkizlar guruhi” faoliyatining mohiyati va siyosiy jihatlarini ochib bergan [11, 12, 13]. Tadqiqotchi N.Norjigitova o‘zining qator maqolalarida guruh faoliyatiga doir ayrim ma’lumotlarni keltirgan [14, 15, 16].

Tarixchi A.Yaxshiyev Rossiya davlat ijtimoiy-siyosiy tarix arxividan olib kelingan hujjatlar asosida “o‘n sakkizlar guruhi” faoliyatiga doir yangi ma’lumotlarni e’lon qildi [17]. Umumta’lim maktablarining 10-sinfi uchun mo‘ljallangan “O‘zbekiston tarixi” darsligining 2002-yildagi ruscha hamda 2004-yildagi o‘zbekcha nashrlariga “18lar guruhi” haqida ma’lumotlar kiritilgan [18; 19]. “O‘n sakkizlar guruhi” faoliyati dissertatsion tadqiqotlarda ham o‘rganilgan. Xususan, 2004-yilda tadqiqotchi O‘.Q.Ubaydullayev nomzodlik dissertatsiyasining “O‘n sakkizlar guruhi” deb nomlangan faslida mazkur guruh faoliyati va uning a’zolari taqdirini keng tahlil etib, asosli ilmiy xulosalarni bergan [20]. S.Hoshimov dissertatsiyasida esa guruh faoliyatining ayrim jihatlari yoritilgan [21].

Tadqiqotchi O.Rashidov dissertatsiyasida “O‘n sakkizlar guruhi” aksilinqilobiy guruhlar qatorida faqat sanab o‘tilgan, xolos [22]. Biroq B.Sh.Alimov dissertatsiyasida “18lar guruhi” faollaridan biri – Inomjon Xidiraliyevning sovet kuch ishlatar organlari qurboni bo‘lganligiga doir ilmiy xulosa asoslab berilgan [23].

Mavzu tarixshunosligida “O‘n sakkizlar ishi. Дело восемнадцати (arxiv hujjatlarining izohli to‘plami)” [24] alohida ahamiyat kasb etadi. Rossiya Federatsiyasi RGASPI arxivi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxividan olingan hujjatlarning asl nusxalari e’lon qilingan. Bu material-

lar mavzuning mohiyati, tarixiy jarayonlari va siyosiy jihatlarini chuqur o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur to‘plamning 3–6-sahifalarida “O‘n sakkizlar guruhi” manbashunosligi va tarixshunosligi berilgan, “muammoning mohiyati va siyosiy jihati” birlamchi arxiv hujjatlari asosida atroflicha tahlil qilingan (6-betdan 33-betga qadar). Ushbu bobda arizani imzolagan 18 nafar milliy rahbar va xodimlarning ism-shariflari hamda ular egallab turgan rasmiy lavozimlar ilk marotaba batafsil berilgan (Shu vaqtga qadar e’lon qilingan ishlarning birortasida ularning ism-shariflari va lavozimlari to‘liq ko‘rsatilmagan**).**

To‘plamda “O‘n sakkizlar ishi”ga doir Rossiya Federatsiyasi (RGASPI) arxivining 62-fondi 2-ro‘yxati 188-ishdagi “o‘n sakkizlar guruhi” arizasi, O‘zbekiston Kompartiyasi II syezdi Markaziy prezidiumining “o‘n sakkizlar” arizasi yuzasidan rezolyutsiyasi, RKP(b) MK O‘rta Osiyo byurosi komissiyasi yig‘ilishlari stenografiyasidan ko‘chirmalarda (34–259-betlar) guruh a’zolari ko‘rsatmalari keltirilgan. Shuningdek, Fayzulla Xo‘jayevning bu ishga daxldorligi bo‘yicha Shelexes, Manjara, Po‘latov, Karimov, V.I.Ivanov suhbatlari va komissiya xulosalari (1925-yil 4-noyabrdagi №115/sh telegramma va komissiyaning 2-son bayonnomasi) ham jamoatchilikka taqdim etilgan. To‘plamdan joy olgan “o‘n sakkizlar ishi” bo‘yicha O‘rta Osiyo byurosi komissiyasining stenografik hisobotlarida milliy rahbar va xodimlarning ko‘rsatmalari (savol-javob)ga doir hujjatlar ham keltirilgan.

Ta’kidlab o‘tish joizki, to‘plamdagi bu arxiv hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi (O‘zR PAA) 58-fond 1-ro‘yxatining 61–64-, 66-, 104-, 108-ishlarida ham saqlanadi, ular asosida “o‘n sakkizlar guruhi” a’zolarining ko‘rsatmalari ilk marotaba 2004-yilda ilmiy jamoatchilikka yetkazilgan edi [20]. Ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Rahmat Rafiqov: “Respublika partiya tashkilotidagi guruhlar o‘rtasidagi kurash meni ariza yozishga majbur etdi. Men amaldor bo‘lib ishlashni xohlamayman, halol partiyaviy kishi sifatida ishlashni xohlayman. Fayzulla Xo‘jayev bilan 12 yildan beri ishlayman. Uning oldiga kirib, ishlash jonga tegdi, chinovnikka o‘xshab ishlamoqdamiz, partiya a’zosi sifatida ishlashni xohlaymiz, dedim. Bizning oldimizda ikkita yo‘l turibdi. Birinchisi guruh bo‘lib kurashish, ikkinchisi ariza berib, MK ixtiyoriga ketish edi. Fayzulla ariza berish ma’qul dedi. Men bu arizaga MK tashviqot bo‘limi hovlisida imzo chekdim” [25], deb javob bergan.

Maqsumov: “Ba’zi birovlar qandaydir guruh tuzishni, jamiki siyosiy va iqtisodiy dasturlardan butunlay norozi bo‘lgan kishilar platformasini tashkil qilishni istaydilar. Bunday bo‘lmaydi. Plenum gap nimadaligini so‘rab-surishtirmay, 18 kishi MK yo‘lidan norozi, deb qaror qildi” [26].

Rahmatillo Muzaffarov: “Men deyarli har kuni Fayzulla qabulida bo‘lardim. Saidjonov va Rafiqovlar bilan partiya ichidagi tang ahvolni tugatish uchun va normal holatni yuzaga keltirish uchun guruh tuzishimiz yoki buning iloji bo‘lmasa ishlashning hojati yo‘qligini muhokama qilardik. Fayzulla bizga guruh tuzish mumkin emasligini, agar vaziyat shu darajada og‘ir bo‘lsa, ariza yozib, Markaziy komitet ixtiyoriga borishimizni maslahat berdi. Biz ariza bilan murojaat qilishni lozim topdik” [27].

Umarjon Karimjonov: “Bizlarga e’tibor yo‘q. Shuning uchun arizaga imzo chekishga majbur bo‘ldim. Xohishim RKP(b) MK ixtiyoriga ketish edi. Hozir esa fabrikada oddiy ishchi bo‘lib ishlashni afzal ko‘raman” [28], deya ta’kidlab o‘tadi.

Nuritdin Qoriyev: “Markaziy komitet rahbariyati bizga ishonmaydi, shu meni ariza berishga majbur qildi”, deb javob qilgan [29] bo‘lsa, **Obid Maqsumov** “shaxsan partiya ishiga qarshi emasman, biroq alohida nuqsonlar ham bor. Asosiy aybi guruhbozlikni tugata olmaganligi, unga qarshi biror chora ko‘rilmagan” [30]. **Abdurahim Hojiboyev**: “Yer islohoti unchalik qattiqqo‘llik bilan o‘tkazilmasligi kerak edi... Meningcha, qishloq boylariga nisbatan munosabatni yumshatish zarur”. Respublika yer ishlari xalq komissari **Inomjon Xidiraliyev**ning ta’kidlashicha, yer islohoti go‘yo “dehqon xo‘jaliklarining maydalashib ketishiga olib boradi” [31]. O‘zbekiston ichki ishlar xalq komissarining o‘rinbosari **Rahimjon Rahimboboyev**: “Nomaqbul vaziyatlar yuzaga kelayotgani va bulardan toliqqanim uchun meni o‘z vazifamdan ozod qilishlarini so‘rab ariza yozgandim” [32].

O‘zbekiston SSR XKS raisi **Fayzulla Xo‘jayev**: “chidab bo‘lmas vaziyatdan xalos bo‘lish uchun yozilgan 18lar arizasini men antipartiyaviy xarakterda deb hisoblamayman” [33].

Mavzu tarixshunosligida yana bir muhim jihat “o‘n sakkizlar” arizasini qo‘llab-quvvatlash masalasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Masalan: 1925-yil 21-noyabr kuni Zarafshon viloyati delegatlaridan Abdurahmonov, Qodirov, Mirxo‘jayev, Saidxonov, Musaxo‘jayev, Olimjonovlar [33], yana O‘ratepa viloyati ijroiya komiteti raisi Qurbonov va O‘zbekiston komsomoli tashkiliy ishlar bo‘limi boshlig‘i, O‘zMIK a’zosi Isamuhammedovlar [34] tomonidan berilgan arizalar va ularning taqdiri hanuzgacha o‘rganilmay kelmoqda. Yoki Namangan uyezd Chust volostidagi Azimboy Yunusboyev bilan Shog‘ofur Shomansurovlar, Namangan shahridan Muhiddin Shohimardonov [35], Samarqanddagi mas’ul xodimlardan Nasrullo Toshpo‘latov, Bobomurodov, Samandarov, Bozor Jalolov, Zokiriy, Shirinov va boshqalar – jami 36 nafar partiya a’zosi ham mavjud holatdan norozi bo‘lib, ariza berishmoqchi bo‘lganliklari [36] mavzuni yana ham chuqurroq tahlil etishni taqozo qiladi.

Keyingi o‘rganishlar “18lar” tarafdorlari faoliyati 1927-yilgacha davom etganini ko‘rsatadi. Birgina misol: Samarqand Oliy pedagogika instituti iqtisod fakulteti 2-bosqich talabasi Akbar Mirzarahimov 1927-yil 4-oktabrda partiya a’zoligidan chiqish uchun yozgan arizasida “18lar guruhi” faoliyatini qoralab chiqishlarga chek qo‘yishni ta’kidlagan holda, quyidagilarni bayon qilgan: “partiya o‘z siyosatini Moskvada boshqacha, O‘zbekistonda boshqacha olib bormoqda, ayniqsa, mahalliylashtirish siyosatiga zid ravishda markaz ruslarni mas’ul lavozimlarga tayinlamoqda. Sanoat rivojlanishi o‘rniga respublika qizil mustamlakaga aylanib bormoqda, bu sharoitda ishlay olmayman, shu bois meni partiya safidan chiqarishlaringizni so‘rayman” [37].

“18lar chiqishi”ni qo‘llab-quvvatlab yozilgan keyingi arizalar ham sovetlar tomonidan qarshilikka uchradi, ariza berganlar partiyadan o‘chirildi, ishdan olindi, “xalq dushmani” sifatida qatag‘on domiga tortildi.

Dastlab “18lar guruhi” a’zolarining jazolanishi quyidagicha kechdi. O‘rta Osiyo byurosi komissiyasi xulosasiga ko‘ra: F.Xo‘jayev ogohlantirildi, M.Saidjonov, I.Xidiraliyev, N.Qoriyevlar vazifalaridan ozod qilindi, R.Rafiqov, B.Maqsumovlar partiya a’zoligidan chiqarildi, Z.Hasanov, O.Maqsumovlarga qattiq hayfsan, R.Rahimboboyev, A.Hojiboyevlarga shunchaki hayfsan berildi. R.Muzaffarovning ishi MK komissiyasiga topshirildi, O‘z “xato”larini tan olgan 8 nafar a’zoning shaxsiy varaqasiga guruhbozlikda ishtirok etganligi yozib qo‘yildi [38].

Guruh a’zolarining jazolanishi bu bilangina cheklanmadi, ularning keyingi taqdiri ayanchli kechdi, deyarli barcha a’zolar va ularni qo‘llab-quvvatlaganlarning aksariyati “Milliy ittihod” yashirin tashkiloti a’zosi sifatida qatag‘on qilindi. Bu bilan ham kifoyalanilmay, ularning begunoh oila a’zolari ham “xalq dushmani” sifatida jazolandi.

“O‘n sakkizlar guruhi” a’zolarining taqdirini aniqlash borasida tarixshunoslikda quyidagi natijalarga erishildi. Taniqli davlat va jamoat arbobi, diplomat Inomjon Xidiraliyevning 1928-yil 31-dekabrda Moskvadagi “Национал” mehmonxonasida fojiali o‘lim topgani [39, 40, 41], Nuriddin Xolmirzayevich Qoriyev (1893–1938) 1937-yil 16-sentabr kuni Ashxobod davlat bankida iqtisodchi bo‘lib ishlayotganida hibsga olinib, 1938-yil 8-yanvarda Toshkentda otib yuborilgani [42], Zokir Hasanov (1895–1938) SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasi qarori bilan 1938-yil 8-oktabrda Toshkent shahrida otilgani [43] professor R.T.Shamsutdinov tomonidan birlamchi arxiv hujjatlari asosida ochib berildi.

Taniqli olim Q.K.Rajabov tadqiqotlarida quyidagilarning taqdiri aniqlangan:

Abdurahim Hojiboyev (1900–1934) Tojikiston SSR Xalq komissarlari soveti raisi (1929-yil 15-dekabr – 1933-yil 23-dekabr) vazifasidan ozod qilingach, 1934-yilda Tojikistonda qatag‘on qilingan.

Rahimjon Rahimboboyev (1889–1935) Toshkent va Zarafshon viloyatlarida yer-suv islohoti o‘tkazish komissiyasi raisi bo‘lgan, u 1935-yil 6- iyunda 46 yoshida Sochi shahrida vafot etgan.

Mirzaxo‘ja O‘rinxo‘jayev (1897–1976) 1937–1956-yillarda Krasnoyarsk o‘lkasidagi Igorkida surgun va qamoqda bo‘lgan. 1957-yilda oqlangan va Samarqandga qaytib, R.R.Shreder nomli bog‘dorchilik, tokchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Samarqand tajriba bazasida ish boshqaruvchi bo‘lgan. U 1976-yil 8-martda Samarqand shahrida vafot etgan va Shohizinda qabristoniga dafn etilgan.

Muxtorjon Yo‘ldoshevich Saidjonov (1893–1937) “O‘zbekkino” tresti boshqaruvchisi bo‘lgan, 1937-yil 20-mart kuni Toshkentda hibsga olinib, shu yil 25-oktabrda otib tashlandi.

Abdurashid Mukamilov (1901–1937) – Buxorodagi jadidchilik harakatining namoyandasi, jamoat arbobi. 1937-yil 25-oktyabrda Toshkent shahrida otib tashlangan.

Rahmat Rafiqov (Rahmat Rafiqovich Abdullabekov) (1886–1932) O‘zbekiston SSRning Moskvadagi doimiy vakili, O‘zbekiston SSR Kommunal bank pravleniyesi raisi o‘rinbosari lavozimlarida ishladi. 1932-yil 20-mayda Toshkentda tramvay urib ketishi natijasida fojiali halok bo‘lgan. Bu fojia GPU xodimlari tomonidan tashkil qilingan, degan taxmin mavjud.

Rahmatulla Muzaffarov (1898–1937) BXSRda turli rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Keyinchalik Zarafshon okrugi partiya komiteti targ‘ibot-tashviqot bo‘limi boshlig‘i bo‘lgan, 1937-yil 25-oktabr kuni Toshkentda otilgan [24].

Guruh a’zolari taqdirini aniqlashda xotiralar ham muhim rol o‘ynaydi. 2001-yilda Toshkentda nashr etilgan kitobda [44] Kimyoxon Ashurova turmush o‘rtog‘i O‘rinboy Ashurovich Ashurovning (1903–1938) 1937-yilda Tojikiston Respublikasi MK birinchi kotibi lavozimida ishlayotganida hibsga olinib, 1938-yilda otib tashlangani haqida ma’lumot bergan.

Maqola muallifining izlanishlari davomida “18lar guruhi” a’zolaridan quyidagilar taqdiri ochiqlandi.

Zokirov Majid 1897-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan, “18lar guruhi” ishtirokchisi bo‘lgani uchun 1934-yili VKP(b) safidan chiqarilgan, 1937-yilda qamoqqa olinishi vaqtida Urgut rayoni maorif bo‘limi boshlig‘i bo‘lgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti Samarqand filiali rahbarlaridan biri sifatida u kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy troskiycha targ‘ibot olib borganlikda, kolxozlarda ocharchilik to‘g‘risida aksilinqilobiy ig‘vogarlik, tuhmat qilganlikda, aksilinqilobiy troskiychilarning otilishiga hamdardlik bildirganlikda ayblanib, shaxsiy mulklari musodara etilib, o‘zi otuvga hukm qilingan.

Nasim Shirinov 1897-yili Samarqand tumani Siyobkenti Miroxur qishlog‘ida dunyoga kelgan. 1907–1913-yillarda maktabda tahsil olgan, ammo uni bitirmagan. 1918-yil 20-martdan VKP(b) a’zosi. 1913–1915-yillarda Miroshnichenko tegirmoni qoshidagi makaron fabrikasida shogird sifatida ishlagan. 1915-yildan boshlab turli lavozimlarda: qora ishchi, don quyuvchi, ekish va shamollatish mashinalarida valtsovkachi, turbinachi, don va un tarqatuvchi ishchi vazifalarini bajargan. 1917-yildan don qabul qiluvchi va un tarqatuvchi, shu bilan birga, 1917-yildan Miroshnichenko tegirmoni fabrika zavkomi a’zosi sifatida ham faoliyat yuritgan. 1918-yildan (milliylashtirilgandan keyin) direktor yordamchisi, 1920–1921-yillarda esa mazkur tegirmonning direktori bo‘lgan. 1918-yildan Samarqand hunarmand ishchilari ittifoqi a’zosi. 1919-yilda Samarqand viloyat sovetlari qurultoyida delegat sifatida qatnashgan. Shu yildan boshlab tegirmondagi VKP(b) boshlang‘ich tashkilotining kotibi bo‘lgan. 1920–1921-yillarda Turkiston Xalq komissarligi Ishchi-dehqon inspeksiyasi hay’ati a’zosi hamda tegirmonda vakolatli nazoratchi sifatida faoliyat yuritgan. 1921-yil boshidan 1923-yilgacha Samarqand uyezdi ijroiya qo‘mitasi, viloyat ijroiya qo‘mitasi, viloyat inqilobiy harbiy tribunali va sudi a’zosi, viloyat partiya qo‘mitasi huzuridagi nazorat komissiyasi a’zosi sifatida xizmat qilgan.

1923–1924-yillarda Samarqand viloyati nazorat komissiyasi raisi bo‘lib ishlagan va ayni paytda viloyat ijroiya qo‘mitasi prezidiumi a’zosi lavozimida ham faoliyat olib borgan. Turkiston Markaziy ijroiya qo‘mitasi (TurSIK) a’zosi sifatida TASSR sovetlarining 12-qurultoyida saylangan.

1924-yildan 1925-yil yanvarigacha Urgut tuman ijroiya qo‘mitasi raisi va “bosmachi”larga qarshi kurash vakili lavozimida ishlagan.

1925-yil 12-iyuldan VKP(b) Samarqand eski-shahar tuman qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimida ishlagan.

1926–1929-yillarda Samarqand viloyati ijroiya qo‘mitasi raisi, 1933–1934-yillarda Andijon MTS siyosiy bo‘limi boshlig‘i sifatida faoliyat yuritgan. 1934-yil 7-mayda Lenin ordeni bilan mukofotlangan.

Samarqand shahar partkomining birinchi kotibi Nasim Shirinov 1938-yil 13-oktabrda o‘lim jazosiga hukm qilindi. Hukm 1938-yil 21-oktabrda ijro etilgan [45].

Maqsumov Bahodir Bahovuddinovich 1902-yilda Farg‘onada tug‘ilgan. 1919-yildan partiya a’zosi, (p.b.№ 1357633), 1923-yil avgust oyidan 1924-yil may oyiga qadar Farg‘ona oblast Marg‘ilon shahar partiya komiteti sekretari, 1925-yildan O‘zbekiston kompartiyasi Farg‘ona viloyat komiteti mas’ul kotibi b‘lgan. U 1925-yil noyabrda “Uzbenxlopkom” boshqarmasi raisining o‘rinbosari lavozimida ishlagan. 1925-yildan O‘zbekiston kompartiyasi Markaziy komiteti a’zosi. “O‘n sakkizlar guruhi” arizasiga imzo yiqqani va sudlanganligi bois 1925-yil oxirida bolsheviklar partiyasi a’zoligidan o‘chirilgan. Biroq keyinchalik partiya safiga qayta tiklangan. Tojikiston respublikasiga ishga yuborilgan, 1937-yilga qadar Tojikiston SSR Xalq komissarlari soveti rais o‘rinbosari bo‘lib ishlagan. Keyin aksilinqilobchi sifatida qamoqqa olingan, 1937-yil 1-dekabrda partiyadan o‘chirilgan. SSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi hukmi bilan 1938-yil 29-oktabrda otib tashlangan [46].

Xayitdin Eshonov 1903-yilda tug‘ilgan, ma’lumoti quyi. Konibodom rayon partiya komiteti mas’ul kotibi lavozimida ishlagan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 3-apreldagi Tojikiston respublikasi bo‘yicha 1-kategoriyada otuvga hukm qilinganlar ro‘yxatida 48-bo‘lib Hayitdin Eshonov turgan. Hukm 1938-yil 20-oktabrda ijro etilgan [47].

“18lar guruhi” tarafdorlari taqdiri. Izlanishlar natijasida davlat xavfsizlik xizmati arxivi fondlaridan Shog‘ofur Shomansurov va Muhiddin Shohimardonovga doir ma’lumotlar topildi.

Shog‘ofur Shomansurov 1888-yilda Chust shahrida tug‘ilgan. U Namangan uyezd shahar inqilobiy qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, 1928–1929-yillarda esa Andijon okrug ijroiya qo‘mitasi raisi bo‘lgan. 1930-yildan Chirchiq suv tarmoqlari boshqarmasi boshlig‘i lavozimida ishlagan. 1937-yil 16-avgust kuni Toshkent shahri Sovetskiy ko‘chasi 17-uyda yashab turgan vaqtida qamoqqa olingan. 1937-yil 21-noyabrdagi NKVD uchligi qarori bilan 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan va RF Komi viloyati Uglig konslageriga yuborilgan. U 1943-yil 2-iyulda Yaroslavl viloyat sudi qarori bilan muddatidan oldin ozod qilinadi va Toshkentga, oilasi bag‘riga qaytadi, lekin shu yili 17-noyabrda og‘ir xastalik tufayli vafot etadi [48].

Muhiddin Shohimardonov 1895-yilda Saudiya Arabistoni Madina shahrida tug‘ilgan. Keyinchalik uning oilasi Namanganga ko‘chib kelgan. Rus, arab tillarini mukammal bilgani bois avval tilmochlik qilgan, 1919–1933-yillarda partiya a’zosi, 1928–1930-yillarda rayon xalq sudyasi bo‘lgan, keyinchalik Baliqchi rayonida agronomlik qilgan, keyin Toshkent Ot parvarishlash zavodi direktori bo‘lgan. NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 25-avgust kuni Toshkent shahri Oktabrskiy rayoni Ozod kvartali 2-uyda yashayotganida hibsga olingan. NKVDchilar tomonidan 1937-yil 21-dekabrda otib tashlangan [49].

Orifjon Olimjonov 1898-yil Jizzax shahrida tug‘ilgan. U jadid va rus-tuzem maktablari ta’limini oldi. 1916-yil Jizzax qo‘zg‘olonining yetakchilaridan biri bo‘lgan. 1919–1920-yillar musulmon yoshlari klubining faoli, 1920–1922-yillar Jizzax komsomol tashkilotida mas’ul kotib, 1922–1923-yillarda Samarqand viloyat komsomol kotibi, 1924–1925-yillarda Samarqand viloyati APO mudiri, 1925–1926-yillarda qishloq

xo‘jalik texnikumi direktori, 1926–1927-yillar Samarqand viloyati xalq ta’limi bo‘limi mudiri lavozimlarida ishlagan. U 1928–1930-yillar Yangi turk alifbosi markazi kengashining mas’ul kotibi bo‘ldi, ayni paytda Samarqand okrug kompartiyasi tashkiliy bo‘limi mudiri o‘rinbosari vazifasini ham bajardi. Bu vaqtda Orifjon Olimjonovning “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida lotin alifbosiga bag‘ishlangan qator maqolalari chop etildi. Orifjon Olimjonov 1930-yil mart-iyun oylarida Andijon okrug kolxoz ittifoqi raisi, 1930-yil iyundan O‘zSSR MIK raisining shaxsiy kotibi bo‘lgan. 1932-yil 14-oktabrda esa OGPU O‘rta Osiyo bo‘limi tomonidan 10 yilga mehnat-tuzatish lageriga hukm etiladi. U jazoni Soloves lagerida o‘tayotgan vaqtda 1937-yil 9-oktabrda Leningradga keltirilib, mash’um “uchlik” hukmi bilan otib tashlanadi. Orifjon Olimjonov 1974-yil 30-avgustda O‘zSSR Oliy sudi tomonidan oqlangan [47].

Zokiriy Jaudir Sarsenbayevich 1906-yilda Xorazm okrugi Mang‘it rayoni Xotam Shayx qishlog‘ida tug‘ilgan, millati – qozoq, To‘rtko‘l shahri Bozor ko‘chasi 8-uyda yashagan. Kasbi pedagog va jurnalist bo‘lgan. 1932-yilda O‘rta Osiyo kommunistik universitetini tamomlagan. 1927-yil sentabridan partiya a’zosi, 1934-yilda yashirin tashkilot a’zosi sifatida ayblanib, partiyadan o‘chirilgan. Keyinchalik partiya safiga tiklangan. Biroq unga qaytadan aksilinqilobiy faoliyat olib borganlik aybi qo‘yilib, 782/50 sonli order bilan 1937-yil 3-oktabrda hibsga olingan. Jaudir Zokiriy SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi hukmi bilan 1938-yil 13-oktabrda Toshkent shahrida otib tashlangan. 1957-yil 16-iyulda SSSR Oliy sudi tomonidan reabilitatsiya qilingan [47].

Isamuhammedov Inoyat (1905–1938) 1928-yilda SAKUni tamomlagan, VKP(b) To‘rtko‘l shahar kengashi raisi, 1924–1926-yillarda LKSM markaziy kengashi birinchi kotibi bo‘lgan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 4–16-oktyabr kunlari Toshkentda bo‘lgan sayyor yig‘ilishlarida jazoga tortilgan birinchi kategoriya bo‘yicha 155 kishi ro‘yxatida 44-o‘rinda Isamuhammedov qayd etilgan [43].

XULOSA

Respublikadagi taniqli 18 nafar arbobning bu arizasi o‘sha davrda shakllanib, qaror topgan ma’muriy-buyruqbozlik, yakkahokimlik, mustamlakachilik siyosatiga qarshi bildirilgan norozilik hamda keng xalq ommasi oldida mustabid sovetlar hokimiyatining obro‘si va nufuziga berilgan ma’naviy zarba edi.

Qatag‘on domiga tortilgan guruh a’zolaridan Ismoil Bozorboyev, Muhammadjon Karimjonov, Obid Maqsumovlar, guruhni qo‘llab-quvvatlab ariza berganlardan Nasrullo Toshpo‘latov, Bobomurodov, Samandarov, Bozor Jalolovlarning taqdiri noma’lumligicha qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви. (ЎзР ПАА) 58-фонд, 1-рўйхат, 64-иш, 12-варағи.

2. ЎзР ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 64-иш, 77-180-варақлар.

3. Magon. “18 lar chiqishi to‘g‘risida” // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1926-yil 4-yanvar.

4. Магон. Всем членам и кандидатам КП (б) Узбекистана: о выступлении «18-ти»: Циркулярные письма ЦК КП(б), ЦК КП (б) Узбекистана // Правда Востока, 4 января 1926 г.

5. Ўзбекистон ССР тарихи. (1917–1937 yillar) IV томлик. 3-том. /Бош муҳаррир И.М.Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. – 457 б.

6. Ўзбекистон Коммунистик партияси тарихининг очерклари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – 323 б.

7. Троцкизм – ленинизмнинг ашаддий душмани. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978.

8. *Зайченко Ж.А*. Бир ариза тарихидан // Инсон ва сиёсат. – 1991. – №1. –Б. 90–96.

9. *Шамсутдинов Р., Каримов Ш.* Ватан тарихи (Ўзбекистон шўролар истибдоди даврида). Иккинчи китоб. – Андижон: Мерос, 1998. – 487 б.

10. Қатағон қурбонлари хотира китоби (Андижон вилояти (1865–1991)) йиллар) 1 қисм / Тузувчилар: Р.Т. Шамсутдинов, Ж.М.Ҳасанов, Э.А.Тожимирзаев, Ж.Т.Иминов, Д.И.Хамидов. – Тошкент: Академнашр, 2021.

11. *Ражабов Қ.* Оммавий қатағонлик сиёсати // “Туркистон” газетаси. 2001 йил 24 октябрь.

12. *Ражабов Қ.* Ўн саккизлар гуруҳи ва уларнинг қисмати // Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг XXI илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Навоий, 2010. – Б. 55–57.

13. *Ражабов Қ.* Ўн саккизлар гуруҳи ва уларнинг фожиали қисмати // “Тарихий хотира – маънавият асоси” мавзусидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро, 2011. –Б. 56–58.

14. *Норжигитова Н.* “18лар” гуруҳи // Фан ва турмуш. – 2001. – № 5–6. – Б. 20–21.

15. *Норжигитова Н*. “18лар” гуруҳи: улар кимлар эди? // ЎзМУ хабарлари. – 2002. – № 2. – Б. 39–43.

16. *Норжигитова Н.* “18лар” гуруҳи: улар кимлар эди? // Қонун ҳимоясида. – 2003. – № 2. – Б. 31–33.
17. *Яхшиев А.* Ўзбекистон тарихи ва маданияти нодир архив ҳужжатларида // “Ўзбекистон тарихи ва маданияти” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материалари. – Тошкент: Тафаккур, 2011. – Б. 113–120.
18. *Alimova D.A., Karimov R.H., Oqilov K.O., Rajabov Q.K., Alimov I.A., Mavrulov A.A.* O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar): 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2002. – 349 b.
19. *Алимова Д.А., Каримов Р.Ҳ., Оқилов К.О., Ражабов Қ.К., Алимов И.А., Маврулов А.А.* История Узбекистана (1917–1991): Учебник для 10 классов. – Ташкент: Шарк: 2004. – 224 с.
20. *Убайдуллаев Ў.Қ.* Ўзбекистонда 20–30 йилларда мустабид тузумга қарши мухолифат ҳаракати (маҳаллий зиёлилар фаолияти мисолида): Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2004. –161 б.
21. *Ҳошимов С.А.* Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг қатағон сиёсати (1917–1936 йй): Тарих фан. д-ри (DSc) ...дисс. – Андижон, 2023. – 287 б.
22. *Рашидов О.Р.* Ўзбекистон ҳудудида миллий зиёлилар ва большевикларнинг мафкура майдонидаги кураши (1917–1938 йй.): Тарих фан. док. (ДSc) ... дисс. – Бухоро, 2022 . – 290 б.
23. *Alimov B.S.* Inomjon Xidiraliyevning hayoti va ijtimoiy-siyosiy, diplomatik faoliyati (1891–1928-yillar): Tarix fan. b. fals. dok. (Phd) ...diss. avtoref. – Andijon, 2025. – 57 b.
24. Ўн саккизлар иши / Дело восемнадцати (Архив ҳужжатларининг изоҳли тўплами). /Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари: Қ.К. Ражабов, А.Ж. Яхшиев. – Тошкент: Академия, 2012. – 320 б.
25. ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 99-варақ.
26. ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 32-варақ.
27. ЎзР ПДА,58-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 92-варақ.
28. ЎзР ПДА,58-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 135-варақ.
29. ЎзР ПДА,58-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 139-варақ
30. ЎзР ПДА,58-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 68-70-варақлар.
31. ЎзР ПДА,58-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 63-67-варақлар.
32. ЎзР ПДА,58-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 181-185-варақлар.
33. ЎзР ПДА, 58-фонд,,1-рўйхат, 64-иш, 26-варақ.
34. ЎзР ПДА, 58-фонд,,1-рўйхат, 64-иш, 24-варақ.
35. ЎзР ПАА, 58-фонд, 1-рўйхат, 61-иш, 35-варақ.
36. ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 61-иш,. 38-варақ.
37. ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 1-9-варақлар.
38. ЎзР ПДА, 58-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 128-129-варақлар.
39. *Шамсутдинов Р.Т*. Таниқли давлат ва жамоат арбоби Иномжон Хидиралиев ҳаётига чизгилар. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – 213 б.
40. *Шамсутдинов Р.Т.* Крематорийда куйдирилган ўзбек давлат арбоби ҳаётидан // Водийнома. – 2018. – № 4. – Б. 7–17.
41. *Шамсутдинов Р.Т.* Крематорийда куйдирилган ўзбек давлат арбоби ҳаётидан // Водийнома. – 2019. – №1. – Б. 1–8.
42. Ўзбекистон Республикаси давлат хавфсизлик хизмати архиви, П 33391-иш, 16-жилд, 240–332.
43. *Шамсутдинов Р.Т.* Ўзбекистонда советларнинг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (Биринчи китоб). – Тошкент: Sharq, 2012. – 432 б.
44. Қор қўйнидаги лолалар: Қатағон қилинган аёллар. – Тошкент: Академия, 2001. – 213 б.
45. Особенности сталинских политических репрессий и реабилитации репрессированных граждан в Кыргызстане. [Электронный ресурс]. URL: https://centrasia.org/person2.php?st= 1097758406 7-й фонд ЦА ФСБ. (Дата обращения: 16.11.2025)
46. ЦА ФСБ Дата сессии ВК ВС: 20.10.1938 [Электронный ресурс]. URL: https://centrasia.org/person2.php?st=1487843145 7-й фонд (Дата обращения: 06.12.2025)
47. *Шамситдинов Р.Р.* О казахах, репрессированных в процессе «Большого террора» в Узбекистане (1937–1938 гг.). // Сборник материалов Международной научно-практической конференции «Политические репрессии среди казахов на территории республик Средней Азии в 20-50-е годы XX века (в свете новых архивных источников)». – Алматы: Институт истории и этнологии им. Ч.Ч.Валиханова, ИП «Алма», 2022. – С. 207–226.
48. Ўзбекистон Республикаси давлат хавфсизлик хизмати архиви, П 23503 иш, 5–7-варақлар.
49. Ўзбекистон Республикаси давлат хавфсизлик хизмати архиви, 24627-иш, 89-варақ.

SOME ISSUES OF THE HISTORICAL SCIENCE OF THE 'GROUP OF EIGHTEEN'

U.K. Ubaydullayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 1(93). 29-38.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *'Group of Eighteen', 'Evolution of 18', 'Work of Eighteen', opposition, groupism, repression, 'counter-revolutionary movements', investigation, exile, concentration camp, rehabilitation.*

The article is extensively analyzed the issues of the historiography of the opposition movement of national leaders and personals, often referred to in historical literature as the "Group of Eighteen", "The 18th Movement", and "The Eighteenth Case". The article also describes the tragic fate and destiny of the members of the "Group of Eighteen" and the national leaders who supported them, based on primary archival documents.

November 19-22, 1925 of 18 national leaders applied to the plenum of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan in Samarkand, asking to be dismissed from their work in Uzbekistan and sent to the Central Committee of the RCP (b) due to the unbearable situation in which they were working in the republic. Since the application frightened the Soviet system, a special commission of the center investigated the applicants on November 22-29, 1925. After various pressures, 8 out of 18 people (A. Hojiboev, I. Khidiraliev, M. Orinho'dzhaev, O'. Ashurov, H. Eshonov, R. Mukamilov, A. Zokirov, N. Shirinov) withdrew their signatures on the application, the remaining 10 people. (N. Qoriev, A. Muzaffarov, M. Saidjonov, R. Rafikov, B. Maksumov, I. Bozorboev, O. Maksumov, M. Karimjonov, Z. Kh,asanov, R. Rahimboboev) remained in their alternative ideas.

On November 21, 1925, the delegates of the Zarafshan region Abdurakhmonov, Kodirov, Mirkhozhaev, Saidkhanov, Musakhozhaev, Olimzhanov, as well as the chairman of the Uratepa region executive committee Kurbanov and the head of the organizational affairs department of the Komsomol of Uzbekistan Isamuhammedov also submitted a statement. They supported the "Group of Eighteen". Members of the "Group of Eighteen" and their supporters became victims of the Soviet policy of repression, I. Khidiraliev was mysteriously killed in Moscow, R. Rakhimbaboev in Sochi, R. Rafikov in Tashkent, 11 people were shot during the "Great Terror", only Mirzakhoja Urinkhozhaev returned to Samarkand after 10 years of imprisonment and died of his own will in 1976. Those who supported the "Group of Eighteen" were also shot in 1937-1938. "The fate of Ismail Bozorboev, Muhammadjon Karimjonov, Obid Maksumov, members of the 18-year-old group, Nasrullo Toshpolatov, Bobomurodov, Samandarov, Bozor Jalolov, who supported the group, remains unknown.

Therefore, the "Group of Eighteen" application was a protest against the policies of the Soviet government and a moral blow to the authority and authority of the Soviet authorities in the eyes of the general public.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi (O'zR PAA). [Archive of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. (UzR PAA)]. Fund 58, list 1, case 64, sheet 12.

2. UzR PAA. Fund 58. list 1, case 64, sheets 77-180.

3. Magon. (1926). "18 lar chiqishi to'g'risida" ['On the release of 18s']. Qizil O'zbekiston. January 4.

4. Magon. (1926). Vsem chlenam i kandidatam KP (b) Uzbekistana: o vystuplenii «18-ti»: Cirkulyarnye pis'ma CK KP(b),CK KP (b) Uzbekistana [All members and candidates of the KP (b) to Uzbekistan: o vystuplenii «18-ti»: Circular letters of the CK KP (b), CK KP (b) to Uzbekistan]. Pravda Vostoka. January 4.

5. Mo'minov, I.M. (1971). *O'zbekiston SSR tarixi.(1917–1937-yillar)* [History of the Uzbek SSR. (1917-1937)]. In 4 volumes. Vol.3. Toshkent: Fan.

6. (1964). *O‘zbekiston Kommunistik partiyasi tarixining ocherklari* [Essays on the history of the Communist Party of Uzbekistan]. Tashkent: O‘zbekiston.

7. (1978). *Trotskizm – leninizmning ashaddiy dushmani* [Trotskyism is the arch-enemy of Leninism]. Tashkent: O‘zbekiston.

8. Zaychenko, J.A. (1991). Bir ariza tarixidan [From the history of one application]. *Inson va siyosat.* No 1. Pp. 90-96.

9. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh. (1998). *Vatan tarixi* (O‘zbekiston sho‘rolar istibdodi davrida). Ikkinchi kitob. [History of the Motherland (Uzbekistan during the Soviet dictatorship)]. Second book. Andijon: Meros.

10. Shamsutdinov, R.T., Hasanov, J.M., Tojimirzayev, E.A. (et.al) (2021). *Qatag‘on qurbonlari Xotira kitobi* (Andijon viloyati (1865–1991-yillar)) [Victims of repression. Memory book Andijan region (1865-1991 years)]. Part 1. Tashkent: Akademnashr.

11. Rajabov, Q. (2001). Ommaviy qatag‘onlik siyosati [The policy of mass repression]. *Turkiston*. October 24-27.

12. Rajabov, Q. (2010). O‘n sakkizlar guruhi va ularning qismati [The Group of Eighteen and their fate]. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning XXI ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami [Collection of materials of the XXI scientific and practical conference of professors, teachers and students]. Navoiy. Pp. 55-57.

13. Rajabov, Q. (2011). O‘n sakkizlar guruhi va ularning fojiali qismati [The Group of Eighteen and their tragic fate]. “Tarixiy xotira – ma’naviyat asosi” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari [Materials of the Republican scientific and theoretical conference on the topic ‘The basis of spiritual memory’]. Vol. IV. Bukhara. Pp. 56-58.

14. Norjigitova, N. (2001). “18lar” guruhi [‘18s’ group]. *Fan va turmush*. No 5-6. Pp.20-21.

15. Norjigitova N. (2002). “18lar” guruhi: ular kimlar edi? [The “18s” group: who were they?]. *O‘zMU xabarlari.* No 2. Pp. 39-43.

16. Norjigitova, N. (2003). “18lar” guruhi: ular kimlar edi? [The ‘18s’ group: who were they?]. *Qonun himoyasida*. No 2. Pp. 31-33.

17. Yakhshiyev, A.(2011). O‘zbekiston tarixi va madaniyati nodir arxiv hujjatlarida [History and culture of Uzbekistan in rare archival documents]. “O‘zbekiston tarixi va madaniyati” mavzusudagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materialari [Materials of the Republican Scientific and Practical Conference on ‘History and Culture of Uzbekistan’]. Tashkent: Tafakkur. Pp. 113-120.

18. Alimova D.A., Karimov R.Kh., Oqilov K.O. (et.al) (2002). *O‘zbekiston tarixi* (1917-1991) [History of Uzbekistan (1917-1991)]. Textbook for 10th graders. Tashkent: Sharq.

19. Alimova D.A., Karimov R.Kh., Oqilov K.O (et.al) (2004*). Istoriya Uzbekistana* (1917-1991) [History of Uzbekistan (1917–1991)]. Textbook for 10th graders. Tashkent: Shark.

20. Ubaydullayev, O‘.Q. (2004). O‘zbekistonda 20–30-yillarda mustabid tuzumga qarshi muxolifat harakati (mahalliy ziyolilar faoliyati misolida) [The opposition movement against the authoritarian regime in Uzbekistan in the 20s-30s (on the example of the activities of local intelligentsia)]. Dissertation for the Candidate of Historical Sciences. Tashkent.

21. Xoshimov, S.A. (2023). O‘zbekistonda sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati (1917–1936 yy) [The Repressive Policy of the Soviet Government in Uzbekistan (1917-1936)]. The dissertation for Doctor of Historical Sciences (DSc). Andijan.

22. Rashidov, O.R. (2003). O‘zbekiston hududida milliy ziyolilar va bolsheviklarning mafkura maydonidagi kurashi (1917–1938-yy.) [The struggle of national intellectuals and Bolsheviks in the ideological arena in Uzbekistan (1917-1938)]. The dissertation for Doctor of Historical Sciences (DSc). Bukhara.

23. Alimov, B.S. (2025). Inomjon Xidiraliyevning hayoti va ijtimoiy-siyosiy, diplomatik faoliyati (1891–1928-yillar) Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences. Andijan.

24. Rajabov Q.K., Yakhshiyev A.J. (ed.) (2012). *O‘n sakkizlar ishi* / Delo vosemnadsati (Arxiv hujjatlarining izohli to‘plami) [The case of the eighteen. Case eighteen (Annotated collection of archival documents)]. Tashkent: Akademiya.

25. UzR PAA, fund 58, list 1, case 66, sheet 99.

26. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, sheet 32.

27. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, sheet 92.

28. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, sheet 135.

29. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63,sheet 139

30. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, sheets 68-70.
31. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, 63-67.
32. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, 181-185.
33. UzR PAA, Fund 58, list 1, case 64, Sheet 26.
34. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63,, sheet 24.
35. UzR PDA, Fund 58, list 1, case 61, Sheet 35.
36. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, Sheet 38.
37. UzR PDA, fund 58, list 1, case 66, sheets 1-9.
38. UzR PAA, fund 58, list 1, case 63, case 66, pages 128-129.
39. Shamsutdinov, R.T. (2022). *Taniqli davlat va jamoat arbobi Inomjon Xidiraliyev hayotiga chizgilar* [Sketches on the life of the prominent statesman and public figure Inomjon Khidiraliyev]. Tashkent: Akademnashr.
40. Shamsutdinov, R.T. (2018). Krematoriyda kuydirilgan o‘zbek davlat arbobi hayotidan [From the life of an Uzbek statesman who was cremated in a crematorium]. *Vodiynoma*. No 4. Pp.7-17.
41. Shamsutdinov, R.T.(2019). Krematoriyda kuydirilgan o‘zbek davlat arbobi hayotidan [From the life of an Uzbek statesman who was cremated in a crematorium]. *Vodiynoma*. No 1. Pp.1-8.
42. O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati arxivi, P 33391 ish 16-jild 240-332 [Archive of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan, P 33391 case, volume 16, pp. 240-332].
43. Shamsutdinov, R.T. (2012). *O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘on siyosati va uning oqibatlari* [Soviet policy of repression in Uzbekistan and its consequences]. Book One. Tashkent: Sharq.
44. (2001). *Qor qo‘ynidagi lolalar: Qatag‘on qilingan ayollar* [Tulips in the Snow: Oppressed Women. Tulips in the Snow: Oppressed Women]. Tashkent: Akademiya.
45. Osobennosti stalinskih politicheskih repressij i reabilitacii repressirovannyh grazhdan v Kyrgyzstane [Features of Stalin’s political repressions and the rehabilitation of repressed citizens in Kyrgyzstan]. [Online]. URL: https://centrasia.org/person2.php?st=1097758406 7-j fond CA FSB. (Date of Access: 16.11.2025)
46. CA FSB Data sessii VK VS: 20.10.1938 [Online]. URL: https://centrasia.org/person2.php?st=1487843145 7-j fond (Date of Access: 06.12.2025)
47. Shamsutdinov, R.R. (2022). O kazahah, repressirovannyh v processe «Bol’shogo terrora» v Uzbekistane (1937–1938 gg.) [About Kazakhs repressed during the Great Terror in Uzbekistan (1937–1938)]. Sbornik materialov Mezhdunarodnoj nauchno-prakticheskoj konferencii «Politicheskie repressii sredi kazahov na territorii respublik Srednej Azii v 20-50-e gody HKH veka (v svete novyh arhivnyh istochnikov)» [Collection of materials of the International scientific and practical conference ‘Political repressions among the Kazakhs in the territory of the republics of Central Asia in the 20-50s of the 19th century (in the light of new archival sources)’]. Almaty: Institut istorii i etnologii im. Ch.Ch.Valihanova, IP ‘Alma’. Pp. 207-226.
48. O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati arxivi, P 23503 ish 5-7 varaqlar [Archives of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan, P 23503, sheets 5-7].
49. O‘zbekiston Respublikasi davlat xavfsizlik xizmati arxivi, 24627-ish 89-varaq [Archive of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan, file 24627, page 89].

Muallif haqida ma’lumot:
UBAYDULLAYEV O‘ktamjon Qodirovich – tarix fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: uktamjon1969@gmail.com